

## TIKUVCHILIK FANLARINI O'QITISHDA FAOL TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH USLUBLARI

*Fazliddinova Saidaxon Baxriddinovna*

*Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabi*

*Tikuvchilik fanlari o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** kasb-hunar maktablarida tikuvchi kasbini o'rgatishda o'qitiladigan maxsus rasm, tikuvchilik materialshunosligi, tikuv jihozlari fanlarida qo'llaniladigan faol ta;lrim usullariga yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagog mahorat, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, sinkyeveyen, qora quti, nima uchun?, T-sxemasi, toifalash jadvali, dumaloq stol, so'z o'yini, chalkashtirilgan mantiqiy zanjir.

Ta'lrim tizmida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab va ko'p qirrali vazifalarini muoffaqiyatli hal etishini faqat malakali, yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qtuvchi bilan amalga oshirish mumkin. Ammo pedagog mahorat tug'ma talant yoki nasildan nasilga o'tuvchi xususiyat emas, balki u izlanish ijodiy mehnat orqali qo'lga kiritiladigan yutuq hisoblanadi.

Ta'lrim-tarbiya jarayoniga ilg'or texnologiya va innovatsiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya-ta'lrim usuli ma'lum ma'noda ta'lrim tarbiya jarayonlari vositalari shakl va vositalari, shakl va metodlari majmui hamda ta'lrim va tarbiya jarayonlarini optimal tashkil etishdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lrim sohasida katta tajriba to'plangan bo'lib, tajriba asoslarini tashkil etuvchi ushbu metodlar interfaol metodlar nomlari bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy kasb-hunar maktablarida o'quvchilarga bilim va ko'nikmalar berishda yangi pedagogik texnologiya, masofaviy ta'lrim va texnikaning oxirgi yutuqlarini qo'llash hamda birgalikda qo'shib olib borish katta ahamiyat kasb etadi.

O'qitish jarayonida ta'lrimning interfaol metodlardan foydalanish faolligini oshirishiga, mustaqil fikrleshishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga, o'z qobiliyatni imkoniyetarli yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Quyda maxsus fanlarda interfaol usullarni qo'llash bo'yicha namunalar keltirilgan va ularni barcha o'qituvchilar mavzu mazmunida kelib chiqib o'z faoliyatlarida tadbiq etishlari mumkin.

### Sinkveyn usuli.

Sinkveyn- fransuz tilida "5 qator" ma'nosini bildiradi.

Sinkveyn- malumotlarini sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan sh'er bo'lib, unda o'rganilayotgan tushungan to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidasi.

1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi(odatda ot talanadi.)

2-qator: Mavzu 2ta sifat bilan ifodlanadi.(2ta sifat yoziladi.)

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni 3ta so'z bilan ifodalanadi.(3ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi.)


4-qator:Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va 4ta so'zdan iborat fikr yoziladi.(4ta so'zdan iborat jumla yoziladi.)

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi.(mavzuga sinonim so'z yoziladi.)

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo'ladi:

- O'quvchilar tushunchalarini yig'indisini baxolash sifatida;
- Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

### Sinkveyn usuliga ilova



### T-jadvali.

Ushbu usul bir tushuncha hodisani ikki tomonini (ijobiy va salbiy) tahlil qilib chiqishiga imkon beruvchi usuldir. Bu sxema quyidagi ko'rinishiga ega( shaklidan kelib chiqib shunday nomlanadi );



## Kimyoviy tolalar

### Ijobiy tomoni.

Kam xarajat bilan boshlang'ich xom asho olish mumkin;  
Tolalar ishlab chiqarish kam mablag' talab qilinadi;  
Olinadigan tolalarni xossalarni oldindan rejalashtirish mumkin;  
Ko'rinishi chiroyi, bir qarshda o'ziga jalg qiladi;  
Bo'yash jarayoni oson, bo'yoq o'z xususiyatini uzoq vaqt saqlab turadi

### Salbiy tomoni.

Inson salomatligiga salbiy ta'siri ko'p; Tibbiyot sohasida qo'llahilmaydi;  
Kapron tolasi issqqa chidamsiz,gigroskopikligi past;  
Mis-ammiak tolasini olish uchun ko'p mablag' talab qiladi'  
Sintetik tola kapron tolasi juda silliq,yashi ilashmaydi,ishqalanish kuchikam,o'ziga kam namlikni tortadi;  
Lavsan tolasining gigroskopik xususiyati yomon;


### So'z o'yini.

O'quvchilarlarning o'z kasbiy fani bo'yicha so'z boyligining aniqlash maqsadida " So'z o'yini" o'tkazish mumkin. O'yin sarti: so'z iboralaridan uning oxirgi xarfidan boshqa so'z topish. O'yining borishi.

Har ikkala guruh alohida qatnashadi.O'quvchilar doira shaklida joylashadilar.So'zning oxirgi xarfidan tezlik bilan so'z topishi kerak, uning topgan so'zining oxirgi harfidan sherigi so'z topishi kerak, aks holda tutilsa yoki o'ylab qolsa o'tirish kerak. Shu tariqa o'yin oxirida bir o'quvchi qoladi va rag'batlantiriladi. Qaysi guruh ko'proq davom ettirsa shu gurug g'olib deb topladi.


Masalan:





### Dumaloq stol metodi.

Topshiriq yozib qo'yilgan stolni davra bo'yla o'tkaziladi, har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javob yozib qo'yishadi, keyin muhokama bo'ladi, noto'g'ri javoblar o'giriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchilar baho beriladi, bu metod faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda. Ketma-ket berilgan javoblar uzulmasligi kerak.



## Soat millari texnologiyasini to'ldirning maishiy tikuv mashinalari

### O'tgan zamonda

Tashqi ko'rinishi juda sodda, oddiy, detallari va mexanizmari yaxshi takomillashtirilman ishlash qiyin, ish asosan qo'lda bajarilardi, ish unumi past, vaqt ko'p sarflanardi, ishchini toliqtirar edi.


### Hozirga zamonda

Tikuv mashinada elektronikani qo'llash, mikro kompyuterlar orqali dasturlashgan holda tikuv ishlari bajarilmoqda. Mashina imkoniyatlari kengaymoqda, vaqt kam sarflanadi, unumdonligi yuqori.

### Kelgusi zamonda

Barcha mashinalar robotlashtiriladi, bi-chishtikish a'ni barcha jarayonlar mashina yordamida bajariladi, ip bilan tikish o'rnini yelim bilan biriktirish usuli qo'llaniladi, to'quv va tikuv mashinasini takomillashtirilib o'lchov bo'yicha choksziz kiyim yaratiladi.

## Quyidagi chap ustunda berilgan so'zlarning mos ta'rifni o'ng ustundan toping va strelka bilan ko'rsating.



### „Qor bo'roni“ usuli

Ikki guruh talaba bir muammo yoki vaziyatni eng ko'p miqdorda to'ri javob olish maqsadidabirgalikda muhokama qilishadi.

Masalan, tikuv mashinasida sodir bo'ladigan nuqsonlar va ularni bartaraf etish yo'llari savoli beriladi. Har bir to'g'ri javob „yumoloqlangan qor“ ko'rinishida shu guruhga ball tariqasida yozib qo'yiladi. Eng ko'p ball olgan guruhga a'llo baholar qo'yiladi.

### Chalkashgan mantiqiy zanjir usuli

Ushbu usul hodisaning sabab-natija bog'lanishlarini o'rganishda qo'llaniladn.

O'tkazilish tartibi:

O'quvchilar etiboriga o'rganilayotgan faktlar (jarayonlar, hodisalar) to'plami sabab natija yoki xronologik tartibi buzilgan holda beriladi. Vazifa:ularni tartib bilan joylashtirish.Faktlarni o'zaro bog'lash uchun o'quvchilar qo'shimcha so'zlarni qo'llash matn ham tuzishlari mumkin. Masalan:qaviq,teshiklar,igna, gazlama, baxya. Gazlamada igna hosil qilgan qo'shni teshiklar orasida iplar chalishuvining bitta tugallangan davri qo'lda bajariladigan bo'lsa, qaviq deyiladi, mashinada bajarilgani esa baxya deyiladi.




### „Qora qutii” metodi.

Ekspert ichiga o’quvchilarga noma’lum narsa solingan „qora qutini” olib kiradi. O’quvchilar bu narsaning nimaligini topishlari va o’z javoblarini batafsil asoslab berishlari kerak. Ekspert qisqacha izohlarni o’quvchilar diqqatiga havola qiladi.

Masalan, bu buyum taxminan XIII-asrlarda paydo bo’lgan bo’lib, dastlab shox, baliq suyaklaridan ishlatilgan. Qadimgi Misr vayronalaridan xatto toshdan yasalganlari ham topilgan. So’ngra u temir bronzadan yasalgan. Keyinchalik po’latdan tayyorlanadigan bo’ldi. Birinchisi po’latdan Germaniyaning Nyurberg shahrida tayyorlangan. Davrlar osha takkomillashib, hozirgi kunga kelib yuqori navli po’latdan turli o’lchamlarda ishlab chiqarilmoqda. №1dan №12 nomerlari bor. Sirti silliq, uchi nayzali o’tkir, ko’zi ovvalsimon teshikli. Bu buyum bo’lmasa tikuvchi buyum detallarini biriktirish, ko’klash, kashta ishlarini bajara olmaydi. (Qora qutida qo’l ignasi bor.)

### “Nima uchun” sxemasi

“Nima uchun” sxemasi-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo’yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va reja-lashtirish jarayonida qo’llash mumkin.



**Toifalash jadvalini tuzish**

Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi(umumiyl) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash,

ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Toifalash jadvali****Yigirish usullarini tasniflanishi**

<b>Yigirish usullari</b>	<b>Yigiriladigan tola turlari</b>	<b>Yigirilgan ipning xossalari</b>
<b>Taroqli usulda yigirish</b>	Jun paxta, tabiiy ipakning uzun tolalari qayta ishlanadi.	natijada bir tekis, zich va silliq ingichka ip hosil bo'ladi
<b>Apparat usulda yigirish</b>	Paxta va junning kalta tolalaridan ip yigiriladi	Yo'g'on, bo'sh, yo'g'onligi jihatidan notebris bo'lgan apparat ipi olinadi.
<b>Karda usulda yigirish</b>	Uzunligi o'rtacha paxta va shtapel tolalardan o'rtacha yo'g'onlikdagi ip yigiriladi.	Taroqli usuldagiga qaraganda notebrisroq va dag'alroq karda ipi olinadi

Xulosa o'rnida aytmoqchimanki har qanday mashg'ulot turi asosiga o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishni, ularning ma'naviy olamiga yangilik olib kirishni shu payitgacha hosil bo'lga bilim ko'nikma va malakalarni rivojlantishni, o'quvchilarni kasbiy yo'lanishi bo'yicha fanning yangi qirralari egallashini maqsad qilib olishi kerak.Har qanday maqsadga erishish uchun esa o'qituvchi izlanish va dars turini to'g'ri tanlab olishi zarur. Dars jaroyonida innavasion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni mustaqil fikirlashga,o'zgalar fikirini humatlashga, ijodiy izlanishga undaydi.

**Foydalangan adabiyotlar**

- 1.Lyudmila Vladimirovna Golish, Dilfuza Mirakbarovna Fayzullaeva. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalahtirish: O'quv- uslubiy qo'llanma.- T.: Iqtisodiyot, 2010N.N. Azizzujaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T. 2003y.
- 2.Mamedov K. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T. 2003y.
- 3.T.A.Ochilov, N.G.Abbosova, F.J.Abdulina, Q.I.Abulniyozov "Gazlamashunoslik "T, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003y.
- 4.T.A.Ochilov, B.B.Axmedov, S.SH.Tashpulatov "Tikuvchilik materialshunosligi "T, " SHarq" nashriyoti, 2007-2008y.
5. Q .Olimov."Tikuv korxona jahozi va uskunalari" Turon - Iqbol" T; 2003 yil
6. Saida .Fazliddinova"Maxsusrasm" Toshkent, "CHO'lpon" matba ijodiy uyi "Toshkent2017y.